



## AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH VA YUKSALTIRISH MUAMMOLARI

**Abduraimov Eldor Qurbonboy o'g'li**

O'zbekiston-Finlandiyapedagogika instituti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15282227>

**Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan bos blab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni bar to monlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.**

**Shavkat MIRZIYOYEV**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ilg'or kommunikatsiya vositalari sharoitida mafkuraviy ta'sir ko'rsatish tezkor va shiddatli tus olib, turli soha va yo'nalishlar doirasida xilma-xil shakllarda namoyon bo'Mmoqda. Ayniqsa yoshlar turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida mafkuraviy tahdidlarning asosiy obyektiga aylanmoqda. Natijada, yoshlarda mafkuraviy immunitetni yuksaltirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

**Аннотация:** Сегодня в условиях передовьх средств коммуникации идеологическое воздействие приобретает стремительньш и интенсивньш характер, проявляясь в многообразньх формах в рамках различньх сфер и направлений. Молодежь, в частности, под влиянием различньх объективньх и субъективньх факторов становится главньш объектом идеологических угроз. В результате вопрос повышения идеологического иммунитета у молодежи становится как никогда актуальньш.

**Abstract:** Today, in the conditions of advanced means of communication, ideological influence acquires a rapid and intense character, manifesting itself in various forms within various spheres and directions. Youth, in particular, under the influence of various objective and subjective factors, becomes the main object of ideological threats. As a result, the issue of increasing ideological immunity among young people is becoming more relevant than ever.

**Tayanch so'zlar:** Internet, axborot, ma'naviy dunyo, axborot, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, tarbiya, jamiyat, davlat, taraqqiyot.

**Ключевме слова:** Интернет, информация, духовньш мир, средства массовой информации, современнью технологии, образование, воспитание, обгцество, государство, прогресс.

**Keywords:** Internet, Information, spiritual world, media, modern, technology, education, Education, Society, State, Development.

XXI asrni globallashuvi, chegaralaming barham topishi, axborot-





kommunikatsiya texnologiyalari va internet asriga aylanib borayotganini isbotlashga hojat bo'lmasa kerak. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari cheksiz bo'lib, u shiddat bilan rivojlanmoqda. MaTumki, yangilanish va islohatlar jarayoni hech vaqt birdaniga amalga oshmagan, negaki, bu inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashi bilan bog'liq jarayon.

Inson ongi asta sekinlik bilan shakllanib borar ekan, uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangilanish va islohatlar jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot asrida yashar ekanmiz, inson va jamiyat hayotida axborot oddiy ehtiyoj me'yoridan chiqib siyosiy va mafkuraviy vosita, bunyodkorlik yoki vayronkorlik kuchiga aylanayotganiga guvohmiz. Insoniyat xalqaro ekstremizm va terrorizm doirasidagi yovuz kuchlarning xurujlaridan sezilarli aziyat chekmoqda. Bundan tashqari, bu intilishlar ayniqsa, mustaqil taraqqiyot yodiga chiqqan yangi davlatlarning hayotida o'ziga xos hoi da aks etmoqda. "Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sogdom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bodmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ulaming goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amri mahol" -degan edi I. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida.

Bugungi kunda ilg'or kommunikatsiya vositalari sharoitida mafkuraviy ta'sir ko'rsatish tezkor va shiddatli tus olib, turli soha va yo'nalishlar doirasida xilma-xil shakllarda namoyon bodmoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqichiga kirganini ko'rsatadi. Ayniqsa yoshlar turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida mafkuraviy tahdidlarning asosiy obyektiga aylanmoqda. Natijada, yoshlarda mafkuraviy immunitetni yuksaltirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Buning uchun jamiyatimiz yoshlarining hayotiy modjal va maqsadlarini, orzu-istaklarini bilish, ma'naviy-ahloqiy hayotidagi ustuvor tendensiyalarni aniqlash zarur. Bu mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda asosiy vazifalardan birini hal qilishga zamin yaratgan bodar edi.

Odish davrida axborot-mafkuraviy idrok etish bilan bog'diq vaziyatning murakkabligini, ya'ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo'qligida ham dir. Bugungi kunda demokratik taraqqiyot, moderinizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat hamda hal qiluvchi kuch bodgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash har qachongidan ham dolzarbdir.





O'zbekistonda "ushbu dastur ...unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bodib, qisqacha aytganda, bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qatdy grajdanlik pozitsiyasiga ega bodgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi".

Ammo bugungi kundagi yoshlarimiz qanday tarbiya topayapdilar? Ulaqaysi axborotlar, qaysi muhit ta'siri doirasida shaxs sifatida shakllanmoqdalar? To'g'risini aytish kerakki, bugungi kunda ko'pchilik ota- onalar turmush tashvishiga berilib ketib bola tarbiyasi masalasiga kamroq e'tibor qaratishmoqda. Ammo, odgan asrning boshida yashab odgan ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "Tarbiya, -bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir degan fikr-mulohazalari bugungi kunda ham o'z mazmun mohiyatini yo'qotgan emasligini yodga olsak foydadan xoli bodmaydi. Albatta, ota-onalar imkon qadar o'z farzandlarini hech kimdan kam bodmasligi uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan kompyuterdan foydalanish, Internet tarmogdga kirish imkoniyatlarini yaratib berishmoqda.

Muammoning yechimini izlashda inson huquqlarini buzmaslikka e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'qiqlash usulidan foydalanishdan qochish kerak. Madumki, Internetdan turli millat va elat vakillari foydalanishadi. Tabiiyki, bin uchun oddiy bo'Mgan axborot ikkinchisining madaniy, an'analariga to'g'ri kelmaydi. Hukumat qancha harakat qilmasin, muammoni bir o'zi yoki qonunlar qabul qilish yo'li bilan hal qilishi qiyin. Yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiluvchi axborot oqimining illatlarini yo'qotish, to'g'rirog'i kamaytirishning yagona usuli ota-ona va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bilan birga ularda ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini ham shaullantirishimiz zarur. Ota- onalar yoshlami uyda va Internet kafelarda Internetdan qanday ma'lumotlar olayotganini bilib turishlari kerak.

Har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Suu ma'noda avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi - axborot oqimi-mafkuraviy tahdid;

ikkinchisi - yoshlar ma'naviyati-ya'ni turli xildagi axborotga nisbatan yoshlarimizda shakllanishi lozim bo'Mgan immunitet masalalari.

Buyuk mutafakkirimiz Abu Nasr Forobiy yovuzlikni inson baxtiga va





jamiyat saodatiga erishish yoMidagi eng katta to'siq deb hisobl原因. Uning fikricha, ta'lim va tarbiya barkamollikka erishishning muhim vositasidir. CHunonchi, ta'lim nazariy hikmat, ezguliklarga o'rgatadi, tarbiya esa, pokiza ahloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Ezgulik va baxt mohiyatdan bitta tushunchadir. Baxt - mutloq ezgulik, zero haqiqiy baxtni faqat yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqaradi, yovuzlik esa, bunga to'sqinlik qiladi.

Darhaqiqat, bunday ezgu g'oyalarni rivojlantirgan faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini terang anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz" - degan edilar.

"Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", Yurtboshimizning bu fikrlari hozirda sodir boMayotgan voqea-hodisalarni to'la aks ettiradi desak mubolag'a boMmaydi.

Ko'pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan internetdan beriladigan ma'lumotlarini nazardan chetda qoldirar ekanlar. Yoshlarimizni, jamiyatimizni kiberterrorizm va Intemetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, qator anti terroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Bugungi yoshlarning 90% asosiy axborot manbai sifatida intemetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanishi sust bolganligi sababli, mish-mishlar dunyosi bolmish

"Internet" yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etmoqda.

Bugungi kunda ba'zi yoshlarimiz turli xil g'arb seriallari ta'siriga tushib qolmoqdalar. Milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotgan yoshlarimiz ma'naviyatiga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning o'tkir zehni, dunyo bilimlarini egallagan boMishlariga qaramasdan Vatan manfaati yoMida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqod, urf-odat va qadriyatlarimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkina, istalgan buzg'unchi g'oyalarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud boMgan g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi va o'z navbatida yangi g'oyalar yaratadi va targ'ib etadi.





Shu ma'noda bugungi avlod umummilliy ma'naviyatni va g'oyaviy muhitni kelajak avlodlar uchun asrashga mas'uliyatlidir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -
2. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017y
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: 2000. -
4. B.466.
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonshidir. «Fidokor»
6. gazetasi muhbiri savollariga javoblar. -T.: O'zbekiston. 2000.
7. Усмонов К. Узбекистоннинг жахон хамжамиятига интеграциялашуви. - Тошкент: Молия,
8. 2003.
9. Узбекистон муста^иллик йилларида. - Тошкент: Узбекистон, 1996.

